



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

XORAZM JADIDLARINING SIYOSIY TASHKILOTLARI VA JAMIYATLARI HAMDA ULARNING XONLIK BOSHQARUVI, IJTIMOYIY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Bekmuhammad Umid

Xorazm Ma'mun akademiyasi, katta ilmiy xodim, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm jadidlarining siyosiy tashkilotlari va jamiyatlari, hamda ularning jamiyatda tutgan o'rni arxiv manbalari, o'sha davrga oid matbuotdagi maqolalar, ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Siyosiy tashkilot, jamiyatlarning qanday maqsadda tashkil etilgani, ularning faoliyati va jamiyatga ko'rsatgan ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: xonlik, boshqaruv tizimi, jadid maktablari, islohotlar, siyosat, harakat, partiya, manifest, miting, qo'zg'olon, konstitutsiya, monarxiya, respublika.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОРГАНИЗАЦИИ И ОБЩЕСТВА ХОРЕЗМСКИХ ДЖАДИДОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ХАНСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ И ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Бекмухаммад Умид

Хорезмская академия Маъмуна, старший научный сотрудник, доцент

Аннотация

В данной статье анализируются политические организации и общества джадидов Хорезма, а также их роль в обществе на основе архивных источников, статей в печати того периода и научной литературы. Освещается, с какой целью были созданы политические организации и общества, их деятельность и влияние на общество.

Ключевые слова: ханство, система управления, джадидские школы, реформы, политика, движение, партия, манифест, митинг, восстание, конституция, монархия, республика.

POLITICAL ORGANIZATIONS AND SOCIETIES OF THE KHOREZM JADIDS AND THEIR INFLUENCE ON KHANATE GOVERNANCE AND SOCIO-POLITICAL PROCESSES

Bekmuhammad Umid

Khorezm Ma'mun Academy, Senior Researcher, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the political organizations and societies of Khorezm Jadids, as well as their role in society, based on archival sources, articles in the press of that period, and scientific literature. It highlights the purpose for which political organizations and societies were established, their activities, and their impact on society.

Keywords: khanate, administrative system, Jadid schools, reforms, politics, movement, party, manifesto, rally, uprising, constitution, monarchy, republic.

XX asr boshlari, xususan, 1910-yillarga kelib, nafaqat Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan Xorazmda, balki dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va harbiy vaziyat tufayli ko'plab mamlakatlardagi jarayonlar qaltis tus ola boshladi. Rossiya imperiyasidagi mitinglar, namoyishlar, boshqaruv tizimidagi boshboshdoqliklar sabab mustamlaka o'lkalarda milliy ozodlik harakati kuchayib ketdi. Bu holat Xiva xonligini ham qamrab oldi va o'lkaning turli hududlarida mustamlakachilikka qarshi norozilik harakatlari zimdan kuchaya boshladi. Xiva xoni amaldorlari o'rtasidagi nizolar, yovmud turkmanlarining xonlik boshqaruv va mustamlakachilarga qarshi g'alayonlari mustamlaka xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kuchaytirib yubordi. Qolaversa, 1898-yilda tashkil etilgan Xorazmdagi birinchi jadid maktabidagi o'qitish tizimidagi taraqqiyparvarlik bois ta'lim sohasidagi o'zgarishlar jamiyatning boshqa sohalarini ham qamrab ola boshladi. Shuningdek, 1910-yildan hukmdorlik qila boshlagan Asfandiyorxonning qo'llab-quvvatlashi bilan bosh vazir Islomxo'ja (1872–1913) xonlikda keskin islohotlarni boshlab yubordi. Ammo islohotlarga xon atrofidagi ayrim saroy a'yonlari, Petro-Aleksandrovskdagi Amudaryo bo'limi boshlig'i va harbiy garnizon rahbariyati qarshilik ko'rsata boshlashdi. Natijada siyosiy to'qnashuvlar 1913-yil 9-avgustda bosh vazir Islomxo'janing o'limi bilan yakun topdi.

Biroq Islomxo‘ja vafot etgani bilan uning jadid maslakdoshlari vaziyat taqozosi, qolaversa, jahon tajribasidan o‘tgan siyosiy g‘oyalar tufayli tashkilot safida birlashishni ma‘qul ko‘rishdi. Natijada jadid taraqqiyparvarlari tomonidan tashkil qilingan “Yosh xivaliklar” harakati vaqt o‘tib siyosiy partiya darajasiga yetgan xorazmlik jadidlarning tashkiloti sifatida ta‘sis qilindi. Dastlabki harakat, keyinchalik siyosiy partiya darajasiga yetgan tashkilot saflarida milliy ziyolilar, xonlik davri amaldorlari, savdogarlar, taraqqiyparvar diniy ulamolar, jadid maktablari pedagoglari birlashishgan. Ya‘ni ushbu siyosiy tashkilot saflarida jamiyatning turli tabaqalari, asosan, amaldorlar, mulkdor va ziyoli taraqqiyparvarlar birlashgan edi. Maqolani yozishda O‘zbekiston Milliy arxivi, “Tarjimon” gazetasidagi maqolalar, N. Polvonovning “Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi”, S. Samandar, U. Bekmuhammadlarning “Xorazm jadid maktablari”, “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta‘lim va adabiyot”, D. Jamolovanning “Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati” (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragi) nomli monografiyalari va boshqa mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, o‘sha davrga oid “Tarjimon” gazetasidagi maqolalardan foydalanildi. Ushbu manbalarni bir-biriga taqqoslagan holda, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga oid tarixiy jarayonlardan kelib chiqib, haqqoniy va xolis xulosalarga kelindi.

Tadqiqotda tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asosida arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari hamda ilmiy adabiyotlar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Shuningdek, muammo kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, Xorazm jadidlarining siyosiy tashkilotlari va jamiyatlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta‘siri tarixiy kontekstda ochib berildi.

Tarix fanlari nomzodlari Otamurod Qo‘shjonov, Ne‘matjon Polvonovlarning tadqiqotlariga ko‘ra, “Yosh xivaliklar” harakati 1904–1905-yillarda hamfikir maslakdoshlar, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan bo‘lsa, 1917-yilda amaldorlar, ma‘rifatli boylar, ziyolilarning Xiva xoniga muxolifat bo‘lgan siyosiy kuchi, 1918-yilda esa rasmiy siyosiy partiya sifatida namoyon bo‘ldi. Bular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o‘zgarishlar obyektiv sharoit sifatida katta ta‘sir qilgan hamda rus inqilobchilari, soldat sho‘rolari va Turkistondagi mahalliy inqilobchilar ta‘siri subyektiv omil sifatida katta rol o‘ynagan” [1].

“Yosh xivaliklar” saflarida Husaynbek Matmurodov, Jumaniyoz Boboniyozov, Polvonniyozhoji Yusupov, Bobojonboy Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Muhammadyorxo‘ja Abdullayev, Otajon Abdolov, Safo Mug‘anniy, Avaz O‘tar, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor hoji Abdullayev, Otajon Jumaniyozov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Qurbonboy Jaloyir, Xudoyberganbek Matniyozov, Davlatnazar Qayroq, Murod Eltuzarov, Mulla Matmurod, Mulla Abdulla Berdimurodov, Avazxo‘ja, Isomiddin eshon, Nizomiddinoxun, Sobir Yoqubov, Bekjon Rahmon, Vais Rahimiy, Muhammad Yusuf Devonzoda singari taraqqiyparvarlar turli hududlardagi faollar bo‘lishgan. Ularning soni dastlabki paytda 40 nafarni tashkil etgan. Keyinchalik esa Asfandiyorxon tomonidan tazyiq kuchaygach, faollar Toshkent, Chorjo‘y, To‘rtko‘lga muhojirlikka ketishga majbur bo‘lishadi va o‘sha hududdagi xorazmliklarni partiyaga a‘zo qilish hisobiga tarafdorlar soni ko‘paya boshlaydi. Dastlabki davrda har payshanba kunlari Xivadagi Qalandarxonada, gohida Qorako‘z masjidida, ko‘pincha esa Husaynbek Matmurodov uyida yig‘ilishlar o‘tkazib, dunyoda kechayotgan jarayonlar, xonlikdagi vaziyatni muhokama qilib turishgan.

Jadidlarning siyosiy tashkilot safiga birlashishining quyidagi sabablari bor edi:

1. Tabiiyki, jadidlarni ta‘lim sohasidan siyosat maydoniga olib chiqqan kuch dunyodagi, Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat edi;
2. Jadidlarning ta‘lim va ma‘rifiy g‘oyalarning siyosiy irodaga aylanishida ular ongiga ta‘sir qilgan, qat‘iyatini oshirgan, namoyandalar dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan “Tarjimon” gazetasi muhim o‘rin tutdi;
3. Mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy bosimlari, xonlikdagi talon-tarojlik va poraxo‘rlikning avj oldirilishi, davlatchilikni tugatib, imperiyaga qarashli guberniyaga aylantirish choralarining ko‘rilishi jadidlarning siyosiy lashuviga turtki berdi;
4. Dunyodagi siyosiy-harbiy vaziyatning qaltirlashishi va Birinchi jahon urushining boshlanishi, qolaversa, Usmoniylar davlati, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o‘zgarishlar obyektiv sharoit sifatida siyosiy tashkilot yuzaga kelishini zarurat qilib qo‘ydi;
5. Xorazmga qo‘shni bo‘lgan Buxorodagi jadidlarning siyosiy faoliyati va ular tomonidan tashkil etilgan jamiyatlarning ta‘siri sezildi;
6. Xorazmga boshqa hududdan kelgan shaxslar — Rossiya guberniyalaridan surgun qilinganlar,

Usmoniylar davlatidan kelgan ayrim turk ziyolilari, Qrim va Qozon shaharlik pedagoglarning vohadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga aralashishi hamda ularning jadidlarga ta'siri muhim omil bo'ldi.

Bu borada esa ikki jihat ajralib turadi:

a) Xorazm jadid maktablaridagi Qrim, Qozon, Orenburg shaharlaridan kelgan Ramazon Saydashev, G'ofur Usmoniy, Kabir Abdurashidov, David Bakirov, Muxtor Bakirov singari o'qituvchilarning Usmoniylar davlatidagi "Yosh turklar" g'oyalari ta'sirida ta'limdan tashqari ijtimoiy-siyosiy faoliyatga aralasha boshlashi;

b) Xorazmga surgun qilingan rus inqilobchilari, soldat sho'rolari kengashining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning kuchayishiga ta'sir qilishi.

Natijada ana shu sabablar va omillar tufayli, yetilib kelgan vaziyat bois, 1914-yildan tashkilot "Yosh xivaliklar" nomiga ega bo'ldi va a'zolari xonlikda xalqqa real ta'sir qiluvchi kuchga aylandi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bahrom Irzayevning mulohazalariga ko'ra, "Yosh xivaliklar" harakati XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida bo'lgani kabi Xiva xonligida ham taraqqiyparvarlik g'oyalari asosida tashkil topgan. Xiva jadidlarining aksar qismi o'ziga to'q, davlatmand oilalarning farzandlari bo'lib, ularning umumiy soni 40 dan ortiq edi. Ular haftaning har payshanba kechasi goh Qalandarxonada, goh Qorako'z masjidida, ko'pincha Husaynbek Matmurod devonbegi o'g'lining uyida yig'ilishlar o'tkazib, qo'shiqlar aytishgan, she'rxonliklar qilishgan hamda erk, adolat, madaniyat va islohotlarga doir suhbatlar olib borishgan. Xonlikda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlar o'tkazish haqida muhokamalar qilishgan. Birinchi jahon urushigacha "Yosh xivaliklar"ning yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan. Ular siyosiy islohotlarsiz biror maqsadga erishish imkonsizligini anglab yetgach, siyosiy partiya sifatida faoliyat yuritishga intila boshlashadi". Ushbu siyosiy harakat – "Yosh xivaliklar" tashkilotining yuzaga kelish jarayoni to'g'risida Jumaniyoz hoji Boboniyozovning "Xiva inqilobiy harakati tarixiga oid materiallar" deb nomlangan qo'lyozmasida shunday yozilgandi: "Dehqonlarni ezish kundankun o'sdi. Shunday qilib, "Yosh xivaliklar" kun tartibiga zulmga qarshi kurash va xonlik tuzumi bilan almashtirish vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifa bilan 1914-yil avgust oyida Xiva shahrida inqilobiy tashkilot tuzilib, Polvoniyozhoji Yusupov rais va haqiqiy a'zolikka Jumaniyoz hoji Boboniyozov, Otajon Safoyev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyorxo'ja Abdullayev, Xudoybergan Devonov, Otajon Xo'janiyozov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Husaynbek Muhammad Murod devonbegi o'g'li, mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozovlar saylandilar" [2]. Aynan ana shu shaxslar, ya'ni Xorazm jadidlari va ularning maslakdoshlari oradan o'tgan qisqa vaqt ichida vohadagi siyosat maydonida katta ta'sir kuchiga ega bo'lishdi. "Yosh xivaliklar" nomi bilan siyosat maydonida ta'sir kuchiga ega bo'lgan harakat tashkiloti etilguncha bo'lgan davrda bosh vazir Islomxo'ja tashabbusi bilan ta'limga oid jamiyatlar faoliyat ko'rsatardi, xolos.

"Tarjimon" gazetasidagi maqolaga ko'ra, "1898-yili Xivada Orenburgli Muhammad Vafo va mullo Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin "taassubning ziyoda o'ldig'ini anglayib, Urganch shahrina ketdilar va u yerda usuli savtiya maktabi kushod etdilar". Ya'ni poytaxt Xivada 1898-yildagi birinchi jadid maktabiga mahalliy aholining ko'nikishi qiyin bo'ldi va Yangi Urganch shahrida ikki pedagog o'z faoliyatini yo'lga qo'yishdi. Shu tarzda Xorazmda birinchi jadid maktabi 1898-yilda tashkil qilingan" [3]. Talab va ehtiyoj bois, ikkinchi jadid maktabi xonning taraqqiyparvar amaldori Mamat mahram tomonidan Deshonqal'adagi uyida 1905-yilda tashkil qilinadi. Shuningdek, o'sha yili bosh vazir Islomxo'ja ham jadid maktabiga asos soladi. Xivada dastlab tashkil etilgan usuli savtiya ta'lim maskanlari "Maktabi Mahramiya" (Mamat Mahramning maktabi), "Maktabi jadid" (bosh vazir Islomxo'janing mablag'iga barpo etilgan) deb nomlanardi. Aholida bo'lgan talab bois, 1907-yilda valiahd Asfandiyorning o'zi ham Xivada uchinchi jadid maktabini tashkil qiladi.

1907-yil 30-martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiyorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida"gi xabarini ham chop qilgan [4]. Shu tariqa Qozon shahridagi Olimjon Barudiy madrasasini bitirgan ikki nafar pedagog Xivada 1907-yildan o'z faoliyatini boshlagandi. Ana shu tarzda an'anaviy eski maktab, madrasa va rus-tuzem maktabidan iborat ta'lim sohasiga Xorazmda jadid maktabi ham kelib qo'shilgandi. O'z nomi bilan yangi usulda ta'lim beriladigan jadid maktabiga bo'lgan talab, qolaversa, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash maqsadida Feruzxon imtihon olishni ham yo'lga qo'yadi. Shunga ko'ra, "1907-yilning 28-mayida Asfandiyor va Islomxo'ja, 31-may kuni qozikalon, mudarris, oxunlar ishtirokidagi imtihon hay'ati o'quvchilarni sinovdan o'tkazishadi. Ya'ni Xivadagi dastlabki ikkala maktabning 113 nafar talabasi hay'atga imtihon topshiradi va

hayratlanarlisi, hammasi a'lo baho olishadi. Imtihon natijasidan ruhlangan valiahd Asfandiyor, bosh vazir Islomxo'ja va qozikalon Salimoxunlar o'zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikkita o'qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Shu bilan birga, Xorazmda jadid maktablarini ko'paytirish, o'quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta'minlash, ulardagi ta'lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzodani maktablar noziri qilib tayinlashadi" [5].

Ana shu tariqa sovet davrida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi deb nomlangan tashkilotga 1907-yilda birinchi bo'lib Xivada asos solingandi. Jadid pedagogi Ramazon Karimzodaga Xiva, Yangi Urganch shaharlaridan boshqa hududlarda ham usuli savtiya maskanlarini tashkil etish, ularga malakali pedagoglarni jalb qilish, darslik, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash vazifasi yuklatilgan edi. E'tiborli jihati, bu singari ta'lim muassasalari keyinchalik Buxoro, Toshkent shaharlarida ham tashkil etilgan va ular turlicha nomlangan jamiyatlar edi. Tarix fanlari doktori Dilnoza Jamolovanning tadqiqotlariga ko'ra, "o'z oldiga Buxoroni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, amirlik hududida konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzishni maqsad qilib qo'ygan Buxoro jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari 1909-yilda "Tarbiyai atfol" jamiyatini tuzib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G'ijduvonda jamiyatning 28 ta shoxobchasini ochganlar. Jamiyat o'z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

– ilmga chanqoq yoshlarga iqtisodiy va ma'naviy yordam ko'rsatib, Rossiyaning Qozon, Ufa, Boqchasaroy hamda Istanbulga o'quvchi yuborish masalasiga alohida e'tibor qaratgan;

– Buxoro amirligida gazeta va jurnallar nashr qilinmasa ham jamiyat Rossiyaning musulmon shaharlarida, Turkiya va Eronda nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borish uchun harakat qilgan. Rossiya siyosiy agentligining ta'qib va to'siqlariga qaramay, jamiyat a'zolari tomonidan bunday nashrlar amirlikda keng tarqatilgan;

– jamiyat a'zolari o'rinsiz sarf-xarajatlarga, to'y va ma'rakalarda yo'l qo'yiladigan isrofchiliklarga qarshi chiqib, bu mablag'larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o'qitish uchun sarf qilishga da'vat etganlar" [6].

Buxorodagi "Tarbiyai atfol" jamiyatining maqsad va vazifalariga e'tibor qaratsak, ular faqatgina ta'lim bilan cheklanib qolmay, jamiyatning barcha sohalarini isloh qilish, monarxiyaga barham berish, zamonaviy respublika tuzishga intilganini ko'rishimiz mumkin.

Ana shunday jarayonda, bu davrga kelib, Xorazmda ham jadidlarning ta'lim sohasi va ularning ma'rifatparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun turli tashkilotlar ham yuzaga kelayotgandi. Xususan, 1912-yilda bosh vazir Islomxo'ja tashabbusi bilan tashkil qilingan "Ta'sisoti xayriya" jamiyati aynan jadid maktablarini qo'llab-quvvatlash, bitiruvchilarni xorijga o'qishga yuborishni maqsad qilib olgandi.

"1912-yil 24-fevraldagi "Tarjimon" gazetasida yozilishicha, "Islomxo'ja Xivada "Ta'sisoti xayriya" vujudga keltirish uchun o'zidan 100 ming rubl iona yetgan" [7].

Tabiiyki, bosh vazirning tashabbusini boshqa mulkdor taraqqiyparvarlar ham qo'llab-quvvatlashadi. Shu tarzda boshqa jadid mulkdorlari ham tashkilotni qo'llab xayriya ishlarini olib borishgan. Ushbu jamiyatning eng muvaffaqiyatli ishi Rahmonbergan mahramning o'g'li Bekjon Rahmonni 1912-yil oxirida Istanbul universitetiga o'qishga yuborishi bo'ladi.

Bora-bora shu jarayonda boshqa jadid pedagoglari, ularning xayrixoh homiylari tomonidan ham turli xil jamiyatlar yuzaga kela boshlaydi. Ana shunday tashkilotlardan biri Yangi Urganch savodxonligi jamiyati deb nomlanadi va 1913-yilda faoliyatini boshlaydi.

Jamiyatning maqsadi jadid maktablari sonini ko'paytirish, ularga o'qituvchilar taklif qilish, darslik va qo'llanmalarni yaratish, maktab bitiruvchilarini xorijga yuborishdan iborat edi. Bu maqsad yo'lida 1914-yilda Yangi Urganchdagi zamonaviy binoda Qozon shahridan kelgan o'qituvchilar shaharda ikkinchi jadid maktabini tashkil qilishadi. Biroq 1916-yil qo'zg'olonlari va 1917-yildan keyingi tazyiqlar sabab pedagoglar Chorjo'y shahriga ketib, faoliyatini davom ettirishadi. Jamiyat ham, afsuski, 1917-yil kuzida o'z faoliyatini to'xtatadi.

1914-yilda "Yosh xivaliklar" harakati o'zining siyosiy faoliyatini boshlagan davrda aynan Xorazmdagi "Ta'sisoti xayriya", "Yangi Urganch savodxonligi jamiyati" a'zolari ham maslakdoshlik hissi bilan harakat safiga birlashdilar.

Garchi 1907-yil 28-mayda Xivada ta'sis qilingan maktablar nozirligi ham, 1912-yil bosh vazir Islomxo'ja tomonidan tashkil etilgan "Ta'sisoti xayriya" jamiyati va 1913-yil Yangi Urganch shahrida

tuzilgan “Yangi Urganch savodxonligi jamiyati” ham 1917-yil sentyabrida o‘z faoliyatini to‘xtatgan bo‘lsa-da, jadid pedagoglari “Yosh xivaliklar” safida birlashdilar.

Ta‘limga oid jamiyatlar tugatilishining quyidagi sabablari bor edi:

1. 1917-yil aprelida jadidlar tomonidan ta‘sis etilgan parlament – “Idorai mashrutiya” kuz faslida Asfandiyorxon va mutaassiblar tazyiqiga uchragach, tugatiladi. Tabiiyki, jadidlar “Yosh xivaliklar” harakatining mag‘lubiyatidan so‘ng, jadid maktablarining ayrimlari, ta‘limga oid uchta tashkilot va jamiyatlar ham faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ladi.
2. Birinchi jahon urushining mustamlaka o‘lkalarga ta‘siri va iqtisodiy vaziyat og‘irlashgach, ko‘plab jadid pedagoglari va yuqoridagi nozirlik, jamiyatlar xodimlari ham vohani tark etib, Qozon, Ufa, Toshkent shaharlariga ketishga majbur bo‘lishadi.

Garchi nozirlik, jamiyatlar qisqa muddat faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishsa-da, ular o‘z faoliyati davomida maktablar sonini ko‘paytirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, darslik, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘lim maskanlarini ta‘minlashdek o‘z vazifasini a‘lo darajada bajarishdi [8]. “Yosh xivaliklar” harakatining xonlik boshqaruvi, qolaversa, jamiyatdagi jarayonlarga siyosiy ta‘siri 1916-yil qish oyida bo‘lgan xalq qo‘zg‘olonida yaqqol sezildi.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Ne‘matjon Polvonovning tahlillariga ko‘ra, “Mamlakatda kuchayib ketgan huquqsizlik va jabr-zulmdan azob chekayotgan xalq turli beklıklardan, xon va uning amaldorlaridan shikoyat qilib, Boboovun qozikalon oldiga o‘z vakillarini yuborib, undan maslahat so‘rashadi. Shunday jarayonda mavjud tuzumga, xonga qarshi mamlakatdagi barcha millat vakillari birgalikda kurashish zarurligini his etgan Boboovun qozikalon turli beklıklardagi norozilik harakati rahbarlarini birdamlikka chaqirdi. Chunki 1915-yilda Qurbonmamed sardor (Junaidxon) qo‘shinlari xon sarbozlarini mag‘lubiyatga uchratib, general Geppner vositachiligida bitim tuzgandi. Lekin maqsadi Rossiya hukmronligidan mustaqil hokimiyat tuzish bo‘lgan Junaidxon kurashni davom ettirayotgandi. Albatta, bunday vaziyatda kuchlarni birlashtirib harakat qilish har ikki tomon uchun ham foydali edi. Ya‘ni Boboovun Salimov rahnamoligidagi “Yosh xivaliklar” ham kuch bilan mamlakatda demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygandilar. 1916-yil yanvar-fevralda xonlikda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonida Boboovun Salimovning, ayniqsa, turkman, o‘zbek, qozoq aholisining birgalikda xonga qarshi chiqishini uyushtirish, hibsga olingan qo‘zg‘olon rahbarlarini ozod qilishda Junaidxondan foydalanish va ularning huquqlarini himoya qilishda xizmati katta bo‘ldi. Lekin general Galkin boshliq jazo otryadi kelgach, hibsdan ozod qilingan xo‘jaylilik Avazbiy, Muhammadbiy, Isomiddin eshon, gurlanlik Xudoyberganbek, Qutlimurod inoq, Otash mirob kabi qo‘zg‘olon rahbarlari osib o‘ldirilgan. Bu mag‘lubiyat, yo‘qotish xalqning umidini so‘ndirdi. Ko‘pgina “Yosh xivaliklar” tushkunlikka tushdilar. Shunday sharoitda Boboovun Salimov ularni ozodlikka ishonch bilan kurashni davom ettirishga chaqirdi” [9].

Aynan 1917-yilda Rossiya imperiyasidagi siyosiy-harbiy jarayonlar kuchaygach, ushbu voqealardan ta‘sir lanish O‘rta Osiyo, shu jumladan, Xorazmda ham sezildi. Tabiiyki, bunga 1917-yil fevralda imperator Nikolay II ning taxtdan ag‘darilishi, Kerenskiy boshchiligidagi muvaqqat hukumat tomonidan boshlab yuborilgan islohotlar sabab bo‘lgandi. Qolaversa, Usmoniylar saltanati, Kavkazdagi turkchilik g‘oyalari asosidagi ziyolilarning O‘rta Osiyoga ta‘siri oshib borishi ham ana shu erkinliklar ta‘sirida kuchayadi. Ya‘ni 1917-yilda Xorazmda yana bir siyosiy tashkilot barpo etildi va uning rahbari qilib Istanbul universitetida tahsil olib qaytgan Bekjon Rahmon saylandi.

Munavvar qori Abdurashidxonovning “Xotiralari”ni nashrga tayyorlagan va so‘zboshi yozgan Sirojiddin Ahmadning tahlillariga ko‘ra, “1917-yil mayda Kavkazdan Muhammadamin Afandizoda va boshqalarning dastlab Andijon, so‘ngra Toshkentga kelishi, “Turon” jamiyati zaminida “Turk adam markaziyat” firqasining tashkil topishi, “Ittihodi Islom”ning “Ittihodi taraqqiy”ga, keyin “Milliy ittihad” tashkilotiga aylanishi o‘lkaning siyosiy-ijtimoiy hayotini to‘lqinantirib yubordi” [10].

Sirojiddin Ahmadning o‘rganishlariga ko‘ra, “Turk adamiyat markazi” Turkiston, Buxoro va Xorazmda ham tashkil etilgan: “Samarqandda Behbudiy – rais, Akobir maxsum Shomansurov, Qozi Haydarbek Abusaidov, eshon Murodxon A‘loxo‘jayev, Shoqobil Kamolov rahbariyatga saylangan. Afandizoda Xivaga boradi. Xorazm tashkilotining raisi etib Bekjon saylanadi” [11].

Afsuski, Bekjon Rahmon boshchiligidagi “Turk adamiyat markazi”ning Xorazmdagi faoliyati, xonlikdagi jarayonlarga ta‘siri, ushbu siyosiy tashkilotning keyingi taqdiri, a‘zolari, ularning g‘oyalari masalasida biror tadqiqot ishi olib borilmagan.

Bekjon Rahmonning “Yosh xivaliklar” harakati (partiya) a‘zosi va respublika davridagi nozirligi, umuman olganda, jadid ma‘rifatparvari, jurnalist, muzeyshunos, ta‘lim fidoyisi va boshqa sohalardagi

serqirra faoliyati esa vohadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy jarayonlar bilan hamqadamlikda kechdi. Afsuski, tarixchilar, pedagog olimlar tomonidan maktablar nozirligi, "Ta'risoti xayriya", "Yangi Urganch savodxonligi jamiyati" singari xorazmlik jadidlarning nozirlik va jamiyatlari, ularning Turkiston, Buxoro va Usmoniylar davlatidagi jadidlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari to'liq tadqiq etilmagan. Faqatgina bosh vazir Islomxo'ja, "Ta'risoti xayriya" jamiyati tomonidan xivalik jadid maktabi bitiruvchisi Bekjon Rahmonning Istanbulga o'qishga yuborilgani xonlik davridagi yagona imkoniyat bo'ldi. Vaholanki, qo'shni Buxoro amirligidagi jadidlar tashkiloti 30 ga yaqin yoshlarni xorijga o'qishga yuborishgandi. Shuningdek, Gurlandagi jadid maktabi bitiruvchisi Olimjon Qodiriy, Yangi Urganchdagi jadidlar maktabi bitiruvchisi Maryam Sultonmurodovalar esa xonlik tugatilib, respublika davrida – 1922-yilda Germaniyaga borib o'qishga muvaffaq bo'lishdi. Shu kabi xorazmlik boshqa jadid maktabi o'quvchilari ham Toshkent, Ufa, Moskva shaharlariga o'qish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Agar 1917-yil kuzida ta'lim tashkiloti, jamiyatlar, shuningdek, "Idorai mashrutiya" – parlament faoliyati to'xtatilmasa, iqtidorli yoshlarning xorijga o'qishga yuborilishi yana davom qilgan va Xorazm vohasiga xorijda o'qigan zamonaviy kadrlar kirib kelgan bo'lardi. Afsuski, 1917-yil kuzidagi xonlik tuzumi va mutaassiblar taziyqi, 1920-yildan jadid maktablarining sovetlashtirila boshlanishi, 1924-yilda respublikaning tugatilishi jadidlar orzusining armonga aylanishiga sabab bo'ldi [12]. Oradan yillar o'tib, 1991-yildagi istiqlolgina jadidlar armonining ushalishiga olib keldi va xorijda o'qiyotgan yoshlar safi tobora ortib bormoqda. Garchi "Yosh xivaliklar" harakati (partiyasi)ga oid tadqiqotlar, kitoblar yaratilgan bo'lsa-da, "Turk adamiyat markazi" singari yana bir siyosiy tashkilotning Xorazmdagi bo'limi, shuningdek, jadidlarining ta'lim bilan bog'liq tashkilot, jamiyatlari faoliyati, ularning erishgan yutuqlari, xorijda o'qigan xorazmliklar, ularning taqdirini tadqiq etish eng dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Ta'limga oid jadid tashkilotlari a'zolarining "Yosh xivaliklar" harakati partiyasi safiga qo'shilishi, Bekjon Rahmondek jadid namoyandasining ham "Turk adamiyat markazi" Xorazm bo'limiga rahbarlik qilishi ta'limdan boshlangan jadidlar harakatining siyosiy lashganini ko'rsatadi. Negaki, dunyoda, Rossiya imperiyasida kechayotgan siyosiy, harbiy, qolaversa, mustamlaka o'lkalarda kechayotgan milliy ozodlik harakatlari jadidlarning siyosat bilan shug'ullanishiga ta'sir qildi. Qolaversa, jadidlarning, xususan, xorazmlik namoyandalarning ham asl maqsad va g'oyalari mustaqillik edi. Dunyo va Rossiya imperiyasida kechayotgan siyosiy, harbiy, boshqaruv sohasidagi tanazzul esa jadidlar uchun katta imkoniyat bo'ldi. Garchi "Yosh xivaliklar" xonlikni tugatishda bolsheviklar bilan vaziyat taqozosi bois murosaga borgan, barpo qilingan Xorazm respublikasi rahbariyatini tashkil etgan, keyinchalik kommunistik partiya a'zoliciga o'tishga, hattoki ishdan chetlatilishga majbur bo'lishsa-da, milliylikni saqlab qolishga intilishdi. Ulardagi Vatan va millat, ta'limga xizmat qilish orqali yurt kelajagini taraqqiy qildirish sa'y-harakatlari davom etaverdi. Ya'ni xonlik davridagi jadidlarning siyosiy tashkilot va ta'limga oid jamiyatlari muayyan ma'noda o'zining vazifasini bajardi, jamiyatga ta'sir o'tkazib, monarxiyani tugatishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O. Qo'shjonov, N. Polvonov. *Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar*. – Toshkent: "Abu-Matbuot Konsalt" MCHJ nashriyoti, 2007. – 294 b.
2. O'zbekiston Milliy arxivi. 125-fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 7–8-varaqlar.
3. S. Samandar, U. Bekmuhammad. *Xorazm jadid maktablari*. – Urganch: MILLENIUMUS PRINT nashriyoti, 2025. – 56 b.
4. *Tarjimon* gazetasi. – 1907-yil 30-mart.
5. S. Samandar, U. Bekmuhammad. *Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta'lim va adabiyot*. – Urganch: MILLENIUMUS PRINT nashriyoti, 2024. – 79 b.
6. D. Jamolova. *Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragi)*. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021. – B. 80–81.
7. *Tarjimon* gazetasi. – 1912-yil 24-fevral.
8. N. Polvonov. *Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi*. – Toshkent: Akademnashr nashriyoti, 2011. – B. 48–49.
9. U. Bekmuhammad, S. Samandarova. Xorazmdagi jadid maktablariga oid ta'lim tashkilotlari va jamiyatlari // *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. – 2025. – № 6. – B. 25–31.
10. Munavvar qori Abdurashidxonov. *Men sendaman // Asarlar*. Sirojiddin Ahmadning "Millatpanoh" nomli so'zboshisi. – Toshkent: Info Capital Books nashriyoti, 2023. – 56 b.
11. Munavvar qori Abdurashidxonov. *Men sendaman // Asarlar*. Sirojiddin Ahmadning "Millatpanoh" nomli so'zboshisi. – Toshkent: Info Capital Books nashriyoti, 2023. – 58 b.
12. U. Bekmuhammad, S. Samandarova. Xorazmdagi jadid maktablariga oid ta'lim tashkilotlari va jamiyatlari // *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. – 2025. – № 6. – B. 25–31.